

## Musiqa Darsning Pedagogik Jihatdan Ko`Zatilishi Va Bilimlarning Baholanish Metodi

*Qulametova Janil<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** Hayot va san`at urtasidagi uzviy bog`liklikni musiqa madaniyatining mazmuni va ma`nosini ifodalash tushuntirish maqsadida aniq hodisalar va misollardan foydalanish. Ushbu voqealarni amalga oshirishda o`qituvchi jiddiy tayyorgarlik kurishi, o`z o`stida tinmay ishlashi, ya`ni bilim saviyasini, madaniyatini, ilmiy adabiyotlar, yangi dasturlar, badiiy adabiyotlar, teatr, muzeylarga borib (tinmay) ongini oshirish yullarini takomillashtirib borishi lozim.

**Kalit so`zlar:** Musiqa, madaniyat, muzey, adabiyotlar, teatr, metodik ko`rsatmalar.

Hayot va san`at urtasidagi o`zviy bog`liklikni musiqa madaniyatining mazmuni va ma`nosini ifodalash tushuntirish maqsadida aniq hodisalar va misollardan foydalanish. Ushbu voqealarni amalga oshirishda o`qituvchi jiddiy tayyorgarlik ko`rishi, o`z o`stida tinmay ishlashi, ya`ni bilim saviyasini, madaniyatini, ilmiy adabiyotlar, yangi dasturlar, badiiy adabiyotlar, teatr, muzeylarga borib (tinmay) ongini oshirish yullarini takomillashtirib borishi lozim. Musiqa darslari olib boriladigan sinf xonasini did bilan namunali jihozlangan bo`lishi muhim rol` uynaydi.

YAngi dastur mazmunida dars o`tish uchun musiqa o`qituvchisi o`zining musiqiy va nazariy bilimlarni takomillashtirish lozim. Bugungi kunda musiqa insonni shakllanishida muhim rol` uynaydi, uning hissiyoti va fiziologiyasiga aktiv ta`sir ko`rsatadi. Umumta`lim maktablarining asosiy vazifalaridan biri, o`quvchilarni fikrlash va uylashga urgatishdir. Bu vazifani amalga oshirishda musiqa darsi muhim ahamiyatga ega.

Dars musiqa tarbiyasi tizimida etakchi omil hisoblanadi. CHunki, bolalar yalpi tarzda qamrab olinadi. Musiqa bolalarni aqliy hamda ahloqiy rivojlanishida katta ijobiy ta`sir ko`rsatadi. SHuning uchun musiqa darslari eng avvalo, tarbiya darsi deyiladi. Fanning nomi faqatgina musiqa o`qitish metodikasi emas, balki musiqa tarbiyasi metodikasi deyiladi.

Bunda o`qituvchi bolalarni ma`lum bir musiqa asari bilan tanishtirib uni ifodali, «jonli» qilib ijro etib, o`quvchilar diqqat e`tiborini asarga jalb etadi, ularning nutqini ustirish, fikrlash qobiliyatini, dunyoqarashini kengaytiradi, emotsional his-tuyg`ulariga xam aktiv ta`sir etadi. Musiqa darslarining mazmunida fakatgina o`zlashtirish emas, balki o`quvchilar ongini vokalikka munosabatini rivojlantirish, estetik madaniyatini tarqib toptirish va boshqa ichki his-tuyg`ularini shakllantirish nazarda tutiladi.[1,78]

O`quvchilarning darsga ijodiy tarzda yondoshishi muhim ahamiyat kasb etadi va bir qancha vazifalarni o`z oldiga maqsad qilib quyadi. Musiqa tarbiyasida yangi metod va vositalar izlash;

Texnika vositalari, metodik ko`rgazmali qurollar, pianino cholg`u asbobi va o`zbek halq cholg`u asboblari bilan jihozlangan bo`lishi, yangi dasturdan foydalanib, dars reja konspektlarini to`zib yangi texnologiyani ko`llab olib borilishi kerak. SHunday qilib, musiqa darslarining barcha faoliyatlarini maqsadi va mazmuni darsni mavzularini yoritib, hayot bilan bog`lab, darsning hamma qismlarini bir-biri bilan uzviy olib borishni talab etiladi.[2,30-31]

Musiqa darsi boshqa darslardan o`zining badiiyligi, qiziqarliligi va

bolalarga ko`proq ijodiy zavq, emotsional tuyg`ular va obrazli kechinmalar uyg`otishi bilan ajralib turadi. SHuning uchun musiqa darsi eng avvalo, tarbiya darsidir. Musiqa darslari kuyidagi spetsifik hususiyatlari bilan boshqa darslardan farq qiladi:

<sup>1</sup> O`zbekiston davlat san`at va madaniyat instituti Nukus filiali o`qituvchisi



U musiqa nazariyasi va ijrochiligiga doir turli faoliyatlardan:

vokal–xor mashg`ulotlari, musiqa savodi, musiqa tinglash, bolalar cholg`u asbobida chalish, ritmik harakatlar bajarish elementlaridan iboratdir. Musiqa boshqa san`at turlaridan o`zining ifoda vositalari, ya`ni «tili» bilan farq qiladi. Agar badiiy adabiyot so`z bilan tasviriy san`at ranglar bilan, raqs san`ati harakat bilan ifodalansa, musiqa esa mantiqiy tovushlarda vujudga kelgan ohang vositasida ifodalanadi. YUqoridagi san`at to`rlarini qo`rish va eshitish orqali idrok etsak, musiqa ni faqatgina diqqat bilan tinglabgina ifoda etamiz. SHuning uchun ko`zi ojiz kishilardan ham etuq musiqachilar etishib chiqqan.

1. Musiqa aniq vaqt ulchovi bilan bog`langan san`atdir. SHuning uchun, ijro etilayotgan musiqa tempiga sozlanib, o`ning har bir elementini diqqat bilan tinglamasak, asarni mukammal idrok etolmaymiz. Mumtoz asarni qayta-qayta tinglaganda o`ning yangi-yangi badiiy qirralarini his etamiz.

2. Musiqa bolalarga aktiv emotsional ta`sir ko`rsatadi, quvontidi hamda ijodiy kechinmalar uyg`otadi.

YAhshi, mazmunli, qiziqarli musiqa darsidan bolalar hordik chiqarib, badiiy ozuka oladilar, quvnoq, hursand bo`lib chiqadilar. [3,90]

Hullas, musiqa darsi o`zining aktiv psixologik ta`siri bilan boshqa fanlardan fark qiladi. SHuningdek, musiqa darsi boshqa fanlar bilan ham chambarchas bog`liqdir. Tasviriy san`at, adabiyot, ona tili, matematika, tarix, pedagogika, psixologiya, vokal, ritmika va boshqalar. Bular musiqa darsini hayot bilan bog`lashga, mazmunli, qiziqarli qilib darsni olib borishga yordam beradi. Musiqa darsi o`zining aralash darsi tipi bilan xam, boshqa fanlardan farq qiladi. Musiqa darsining strukturasi 3 asosiy faoliyat turidan: musiqa tinglash, musiqa savodi va xor bo`lib qo`shiq kuylashdan iborat.

O`rta sinflarda dars (strukturasi) 3 ta asosiy faoliyatlardan tuziladi:

1. Xor bo`lib kuylash.
2. Musiqa savodi.
3. Musiqa tinglashdan iborat.

Boshlang`ich sinflarda esa dars strukturasi 5 ta asosiy faoliyatlardan to`ziladi:

1. Xor bo`lib kuylash.
2. Musiqa savodi.
3. Musiqa tinglash.
4. Musiqaga mos harakatlarni bajarish.
5. Bolalar cholg`u asboblarida jur bo`lishdan iborat bo`ladi.

CHunki, boshlang`ich sinf o`quvchilarini diqqat e`tiborini tarqoq, ovoz apparatlari kuchsiz, musiqiy o`quv qobiliyatlari, to`la shakllanmagan - 10-serharakat, uyinga moyil bo`ladilar. Bunda darsning to`zilishi barkaror strukturaga qarab emas, balki o`qituvchi dars mavzusi, pedagogik maqsad sari erishishga qarab, darsni hojlagan dars faoliyatidan boshlashi mumkin. Bundan maqsad, o`quvchilarni musiqaga qiziqitira olish, musiqiy qobiliyatlarini ustirish jihatdan mantiqiy bir butunlikka erishdir. Demak, yangi dastur mazmunida dars o`tish uchun, musiqa o`qituvchisi ijodkor bo`lishi, musiqadan zarur bilimlarga hamda ashulachilik malakalariga ega bo`lmog`i zarur.[4,82]

Musiqaning o`qitish metodlari deganda, maktab o`quvchilarining bilim,

mahorat va malakalarni egallashda, o`larning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda va dunyoqarashini tarqib toptirishda o`qituvchilarning

qullagan ish usullari tushuniladi. Musiqa o`qitish metodikasi vazifalarini amalga oshirishda, musiqa o`qitishning qator metodlari bilan birgalikda, pedogogikaning amaliy yunalishini hususiy (optimal) metodlar egallab, musiqa darsida qo`llash muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa o`qitish metodikasi



vazifalarini amalga oshirishda musiqa darsida o`qitishning (optimal) hususiy metodlaridan unumli foydalanishga bog`liq.

Etuv olimlarimizning tadqiqotlarida maktab o`qituvchisining shahsiyati va o`nga bulgan professional tinglovchilar va o`quvchilar munosabatini, hususiy metodlardan foydalanish jarayonida hal qilish lozimligi ilmiy asosda ta`riflab berganlar. Hususiy metod- biror bir fanning amaliy va ijodiy ishlarini mazmunini va mavzusini keng yoritib berish va mustaxkamlashda, o`qituvchi va o`quvchi faoliyatida o`zaro aloqadorligini va o`quvchilarni bilish jarayonida izlanishga undovchi metoddir. Hususiy (optimal) metodlar o`qitish faoliyatida maqsadga qarab to`rtga bo`linadi.

1. Darsni musiqaviy umumlashtiruvchi metodi
2. O`tilajak darslarga oldindan «yug`urib», bog`lanib o`tish va ilgari o`tilganlarga qaytish metodi
3. Dars mazmunini emotsional dramaturgiyasi metodi
4. Darsning pedagogik jihatdan ko`zatilishi va bilimlarning baholanish metodi.

Darsni musiqaviy umumlashtirish metodi, etakchi metodlardan biri bo`lib, o`quvchilarni musiqa idroki, mantiqiy badiiy fikrlash qobiliyatini rivoshlantirishga qaratilgandir:

- a) O`qituvchi darsda hal qilinishi lozim bulgan konkret vazifalarni vujudga keltiradi;
- b) O`qituvchi va o`quvchi birga hamqorlikda masalani echadi;
- c) O`quvchilar tomonidan yakuniy hulosalar chiqariladi.

Oldinga «yug`urib o`tish», ya`ni ilgari o`tilgan materialdan foydalanib, o`quvchilarni yangi material o`zlashtirishga tayyorligini sinab ko`rish va bunda oldin egallagan bilimlarga so`yanish uchun foydalaniladi. Emotsional dramaturgiya metodi, bilan darsning mantiqiy yahlitligiga erishiladi. Bunda chorak mavzusi asosida dars rejasi uchun asarlar tanlanadi. Tanlangan mavzular xam maqsadga muvofiq bo`lib boshlanishi va yakunlanishiga bog`liqdir.[5,102]

O`qituvchi darsni ijrochilik mahorati bilan, so`z ustaligi bilan qizi qiziqarli qilib o`tishi kerak. Ish vaqti u o`zi xam stsenariy avtor, rejissyor, artist bo`lishi kerak. Musiqa o`qituvchisi maktabda musiqa darsidan tashqari kontsertlar, badiiy kechalar, uchrashuvlar o`tkazishini talab etadi. Darsni pedagogik ko`zatilishi va bilimlarni baholash maqsadga qarab bir necha guruhlarga bo`linadi:

- a) O`quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi turi.
- b) Bilim faoliyatini rag`batlantirish va bexolash talablarini kuyish.
- c) O`qish, bilish, faoliyatini samaradorligini boshqarish va nazorat qilish. Baholashda, shunday ehtiyotkor bo`lish kerakki, o`quvchilarni kayfiyatini tushunib ketmasin. Darsga, qo`shik kuylashga qiziqishi sunmasin. Rag`batlantirishda esa aksincha. O`qituvchi va o`quvchi munosabatlari meyoridan chiqib ketmasligi kerak. Balki, rag`batlantirish, sinfda boshqa o`quvchilarga namuna bo`lib hizmat qilsin va boshqalar odobli, aqlli bo`lishiga intilsinlar.

#### **Adabiyotlar:**

1. Apraksina O. "Metodika muzыkal`nogo vospitaniya v shkole M". 1983 yil.
2. Dmitrieva G. CHernoivanova «Metodika muzыkal`nogo vospitaniya v shkole.» M. 1987
3. Kodirov R.G. «Boshlang`ich maktabda ko`p ovozd kuylash» T. 1997
4. Omonullaev D. Nurmatov X. Va boshqalar «2-sinf uchun musika darsligi» T. 1987.
5. Omonullaev D. "Umumiy ta`lim maktablari uchun musiqa dasturlari "T. 1992 y.

